

**YANGI DUNYOVIY TARTIBOT SHAKLLANISHIGA OID
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR****Hilola Xalilova Sharopovna ¹**

¹ Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati yo'nalishi
2-kurs magistranti

e-mail: hilola.xalilova98@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received: 09.01.2025

Revised: 10.01.2025

Accepted: 11.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

dunyoviy tartibot, bir qutbli, ikki qutbli, ko'p qutbli, realizm, liberalizm, neorealizm, konservatizm.

Yangicha dunyoviy tartibot masalasi, ya'ni kelajakdagi dunyoning tuzilishi haqidagi masalalar barcha davrlarda ham munozarali masalalardan biri hisoblangan. Xususan, birinchi va ikkinchi jahon urushidan keyin, ayniqsa sotsialistik blokni qurilishi va barbod bo'lishi jarayonlarida yangicha dunyoviy tartibot masalasi xalqaro munosabatlarning kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'ldi. Ushbu maqolada xalqaro munosabatlar o'zgarishi natijasida tinch va adolatli dunyo tartibotini o'rnatish bo'yicha ko'plab olimlarning nazariy fikrlari o'zaro qiyoslanib, dunyoning tuzilishi va dinamik xususiyatga ega xalqaro munosabatlar tizimiga moslashuvchan nazariyalari va ularning umumiy olimlarning xulosalari tahlil qilingan.

KIRISH. Hozirgi murakkab davrda dunyo, olimlarning ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, na bir qutbli va na ko'p qutbli xalqaro munosabatlar tizimi mavjud bo'lmagan qiyin paytni boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda har bir mustaqil davlatning tom ma'nodagi o'z mustaqilligini saqlab qolishi nafaqat davlatning ichki siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, balki xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa shu kabi o'zgarishlarni inobatga olgan holda faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Bunda har bir mustaqil davlatning o'z strategiyasi, milliy manfaatlari, o'rni va albatta muayyan kuchga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu omillar uning davlat sifatida mavjud bo'lishini kafolatidir. Xalqaro maydondagi o'zgarishlar dinamik bo'lib hech bir zamonda barqaror bo'lmagan. Xalqaro munosabatlar nazariyalari doimo o'z aktualligini saqlab qolgan bo'lib,

ko'plab jahon siyosatchi va siyosatshunos olimlari tomonidan xalqaro tartibotni o'rnatish bo'yicha turli qarashlari mavjud bo'lib, mana shu nazariyalar tufayli shu kungacha turli tartibotlar o'rnatilib kelingan. Zamon va tajribalar shuni ko'rsatadiki, haligacha hech bir ta'limot mukammal va barqaror xususiyatga ega emas, ushbu nazariyalar bir-birini to'ldirib keladi.

Asosiy qism

Har bir alohida davrda xalqaro munosabatlarning asosiy ishtirokchilari o'rtasida o'zaro munosabatlarning ma'lum bir tabiati rivojlanadi. Bu munosabatlar har bir davrga xos tuzilishga ega bo'lib, odatda xalqaro munosabatlar tizimi yoki xalqaro tizim deb ataladi (Ачкасов В. А., 2011). Dunyo tartibi haqidagi masalani muhokama qilishni xalqaro munosabatlar (XM) nazariyasining asosiy farazlaridan biriga murojaat qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir: xalqaro munosabatlar o'z mohiyati jihatidan anarxik xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, xalqaro munosabatlarning tabiati avvalo tartibning o'zi yo'qligini nazarda tutadi. Xalqaro munosabatlardagi tartib – tabiiy bo'lmagan hodisa bo'lib, uning joriy konfiguratsiyada (shaklda) mavjudligi – vaqtinchalik hodisadir. (Тимофеев, 2014)

Tarixiy jihatdan ayni davrda yetakchi davlatlar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning xarakteri katta ahamiyatga ega. Raketali-yadroviy qurollarning paydo bo'lishi va xalqaro munosabatlar tizimining haqiqatan ham global xarakter kasb etishi bilan, tizimning o'zi strukturasi qudratli davlatlarning mavjudligi va soni, shuningdek, ularning o'rtasidagi kuchlar nisbati aniqlay boshladi. Dunyoviy tartibotning o'ziga xos belgilari deyilganida, ularni har bir davrdagi o'ziga xosligi bir-biridan farq qilib turuvchi xususiyatlari nazarda tutiladi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin: bir qutblilik; ikki qutblilik; ko'p qutblilik.

Ikki qutblilik – bu ikki qutbli kuchlarning o'zaro ta'sir doirasida dunyoni qayta bo'lib olishdir. Ushbu qutblanish o'zida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki siyosiy-mafkurviy qarashni majassam etadi.

Ikki qutblilik masalasi 1946-1991 yillarda AQSh va SSSR o'rtasida sodir bo'lgan "Sovuq urush" davrida yuzaga keldi. Uning asosini kapitalizm va sosializm g'oyalariga asoslangan ikki xil qarashlar tashkil qilgan. Har ikki davlat buyuk davlat statusiga ega bo'lgan. Shuningdek, ular yadroviy qurolga ega bo'lgan g'olib davlatlar hisoblangan. Aynan shuning uchun, ular o'rtasidagi sovuq urush ancha katta kuchlarning o'zaro qarama-qarshiligi ostida o'tdi.

Bundan tashqari, ikki qutblilik ayrim holatlarda ikkita bir-biriga qarshi kurashayotgan lagerlarning qarama-qarshiligi hisoblanadi. Masalan, ikkinchi jahon urushida SSSR,

AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya, Italiya va Yaponiya davlatlari o'rtasidagi kaolisiyadir.

Dunyoviy tartibot haqida, “dunyo bir qutbli, ikki qutbli yoki kaos holatida bo‘lishi mumkin” (H.Kissinger, 1994)- deb ta’riflaydi.

M.M.Lebedeva esa “ikki qutbli dunyo”ni quyidagicha tavsiflagan:

- ikki qutb orasida yetarli darajadagi o‘zaro dushmanlik kayfiyatining mavjudligi;
- qarama-qarshi bloklar bir-birini ta’sir doirasini kamaytirishga urinishi;
- yangi a’zolarini jalb qilish hisobidan boshqa blokka nisbatan ta’sir etishni kuchaytirish (Лебедева, 2004).

Yangicha dunyoviy tartibot 1991-yildagi Yalta-Potsdam tarixiy davri tugashi yoki bipolyar (ikki qutbli) davrining tugashi bilan boshlandi. Bu davrga kelib, dunyoning faqatgina Shimoliy Atlantika Shartnomasi tashkiloti va Varshava Shartnomasi tashkilotidan, ya’ni kapitalistik va sotsialistik tuzumdan iborat emasligi xalqaro munosabatlar sub’ektlari o‘rtasida aniq bo‘lib qoldi. Lekin, hali ham jahon siyosati qaysi yo‘nalishda rivojlanishi, uning qaysi hislatlari yoki belgilari hal qiluvchi ahamiyatga egaligi va kelajagi nimadan iborat bo‘lishi aniq emas edi. Aniqroq qilib aytganda, sovuq urushning tugashi va “sotsialistik tizimning” barbod bo‘lishi sobiq sovet respublikalari, shu jumladan O‘zbekiston uchun ham xalqaro maydonda o‘z tashqi siyosiy ustuvorligini, milliy manfaatlarini belgilab olish, shuningdek bundan buyon mustaqil davlat sifatida xalqaro munosabatlarda o‘z o‘rnini topishi uchun ulkan qulayliklar yaratib berdi.

Bir qutbli dunyoviy tartibot tushunchasi ko‘proq ikki qutbli tizimning yemirilishi natijasida AQShni yagona qudratli davlat sifatidagi faoliyati bilan bog‘liq. 1990- yilga kelib AQSh o‘zining harbiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan dunyoda yagona imperialistik kuchni qo‘lga kiritdi. Natijada u o‘zini dunyoni yagona va birinchi qudratli davlati sifatida e’tirof eta boshladi. Hatto xalqaro maydonda tan olingan buyuk davlatlar hisoblangan Angliya, Germaniya, Yaponiya ham endi AQShga qaysidir ma’noda qaram davlatga aylandi. Bir qutblilik masalasi juda munozarali masalalardan biridir. Aynan, shu sababli, ushbu davr siyosatchilari va tadqiqotchilari AQShning bir qutbli dunyoviy tartibot konsepsiyasi bir qator ilmiy izlanishlar va munozaralarga sabab bo‘ldi. Bir qutbli dunyo – bu hokimiyatning u yoki bu darajada kuchi yagona gegemon davlat qo‘lida to‘plangan dunyoviy qurilmaning turidir. Rus siyosatshunosi M.M.Lebedeva bir qutblilik masalasiga: “u xalqaro maydondagi shunday holatdirki, uning zamirida yagona qudratli davlatning iqtisodiy, siyosiy, harbiy va shu kabi ko‘rsatkichlari bo‘yicha davlatlarni boshqa davlatlardan uzilishidir” – deb ta’rif beradi. Shuningdek, dunyoviy tartibotning bunday

ko'inishini, u tarixda juda kam sodir bo'ladigan hodisa sifatida baholaydi (Лебедева, 2004). O'z-o'zidan AQSh nimaga yagona qudratli davlat bo'la olmaydi – degan savol tug'iladi. Javob shuki, qudratli davlat avvalo o'zini-o'zi himoya qila olgan va o'z qo'l ostidagi davlatlarni ham harbiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan muhofaza qilishga tayyor bo'lgan davlatdir. Agar u bunday kuchga ega bo'lmasa, demak u xalqaro munosabatlar aktorlari orasidagi "tenglik" maqomidan foydalanishga majbur. Bugungi kunda, xalqaro munosabatlarda AQSh buyuk davlat sifatida e'tirof etiladi, biroq u dunyodagi barcha davlatlarni ham harbiy-siyosiy, ham moliyaviy-iqtisodiy jihatdan muntazam qo'llab-quvvatlab turish darajasidagi kuchga ega emas. Ayni damda, uning iqtisodiy potentsiali ham bunga imkon bermaydi.

Ko'p qutbli xalqaro munosabatlar tizimi haqida ko'plab mutaxassislar «sovuq urush» davrida yozgan, ammo uning shakllanish ehtimolini kelajak bilan bog'lashgan. Bunday tizimning yuzaga kelishi, kimningdir xohish-istaklarining natijasi sifatida emas, balki obyektiv jarayonlar, masalan, bipolyar tizimning parchalanish jarayoni, bir qator mintaqalarda yangi kuch markazlarining paydo bo'lishi va o'sha davrdagi ikki qudratli davlatning kuchi zaiflashuvi natijasida yuzaga kelishi mumkin deb ko'rilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pgina mualliflar xalqaro tizim tuzilishini an'anaviy cheklangan omillar nuqtai nazardan ya'ni asosan davlat kuchini harbiy quvvat bilan tenglashtirib tahlil qilishgan. S. Hoffman XX asrning 70-yillari oxirida xalqaro munosabatlar rivojlanishining bir qator tendensiyalarini ko'rsatdi. U davlatlar sonining ortishi, nodavlat aktorlarning roli ortib borayotgani, o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, iqtisodiy va harbiy omillar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishini qayd etdi. Eng muhimi, u xalqaro tizimda yangi ierarxik tuzilmalarning paydo bo'lishini qayd etdi. Agar ilgari faqat kuch omiliga asoslangan bitta ierarxiya mavjud bo'lgan bo'lsa, endilikda bir nechta funksional har biri turli omillarga asoslanadigan iqtisodiy, harbiy, mafkuraviy, ijtimoiy-madaniy va boshqa ierarxiyalar shakllanayotganligini oldindan ko'ra olgan edi (S.Hoffmann, 1978). Xalqaro munosabatlar tizimi uzoq vaqtdan beri yuzdan ortiq davlatlarni va ko'p sonli nodavlat subyektlarni birlashtirgan universal, global xususiyatga ega bo'lib kelmoqda. Ko'p qutblilik masalasi, globalizatsiyalashib borayotgan jarayonlarda AQSh siyosatiga qarshi bo'lgan kuchlarning fikricha, zamonaviy dunyo ko'p qutbli tizimga ega. Bu fikr AQShning dunyo rahnamoligi da'vosiga qarama-qarshi qo'yilgan. Chunki, 1990-yillarga kelib Rossiyaning siyosiy va harbiy jihatdan kuchsizlanishi va AQShning sovuq urushdagi g'alabasi uni yakka hukmdori sifatida e'tirof etilishiga olib keldi. Biroq, 2000-yillarda Rossiyaning xalqaro munosabatlardagi pozitsiyasining kuchayishi shuningdek, Xitoy, Hindiston, Braziliya va

Janubiy Afrika davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va texnologik jihatdan juda tez rivojlanishi, zamonaviy dunyoviy tartibotda ko'p qutblilik konsepsiyasining amalda ekanligini isbotlaydi. "XXI asr Xalqaro munosabatlar tizimi, - yozadi Genri Kissenjer, - ...kamida oltita buyuk davlatlar – AQSh, Yevropa, Xitoy, Yaponiya, Rossiya va ehtimol Hindistonni – shuningdek ko'plab o'rtacha va kichik mamlakatlarni o'z ichiga oladi" (H.Kissinger, 1994). Ushbu fikrni to'ldirib S.Hantington, Kissenjer yozgan uchta buyuk davlatlar beshta bir-biridan o'ta farq qiluvchi sivilizatsiyalarga tegishlidir. Qolaversa, bir nechta muhim islomiy davlatlar ham mavjud bo'lib, ularning strategic joylashuvi, ko'p sonli aholisi va neft zahiralari mazkur davlatlarning ham jahon siyosatida yetakchi kuchga aylanishiga imkon yaratadi. Bunday yangi dunyoda mahalliy siyosat milliy va etnik siyosat bo'lib, global siyosat sivilizatsiyaviy siyosatdir. Qudratli davlatlar orasidagi raqobat endilikda sivilizatsiyalar to'qnashuvi bilan almashdi (S.Hantington, 2023). Agar dunyo tizimini tahlil qilsak, xalqaro munosabatlar tizimi kuchli davlatlar va ko'plab zaif va rivojlanib kelayotgan o'rtacha davlatlardan iborat. Kuchli o'yinchilar hali hamon xalqaro tizimda qutblarni tashkil etadi, bu tizimni bir qutbli, ikki qutbli yoki ko'p qutbli qiladi. Tizimda qutblar soni ko'paygan sari, u berqarorlashadi, qutblar o'rtasidagi munosabatlardagi noaniqlik darajasi ortadi, tizim yanada anarxik bo'ladi va dunyo tartibi o'zgarishlarga uchrash ehtimoli oshadi. Bu muhim bir fikr bo'lib, ko'p qutbli tizimning xavflari haqida ogohlantiradi. Ko'pincha ingliz olimlari ko'p qutbli tizimga xavf sifatida qarasa Rossiya siyosiy diskursida ko'p qutbli tizim ko'pincha yaxshilik sifatida qabul qilinadi. Haqiqatda, bunday tizim diplomatik manevr imkoniyatlarini oshiradi va nazariy jihatdan yanada demokratik adolatli xususiyat kasb etadi. Lekin bu tizim qutblar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayish xavfi ortadi va kelishuv jarayonlarini murakkablashtiradi" (Тимофеев, 2014).

Xalqaro munosabatlarda qanday tizim o'rnatilmasin, barcha tizimlarda kuchlar muvozanati, davlatlar suvereniteti va milliy manfaatlar unsurlari o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Xalqaro munosabatlar tizimining, boshqa tizimlar kabi, ishlashining asosiy qonuni dinamik tenglikni saqlash qonuni hisoblanadi. Har qanday xalqaro tizimning asosiy aktori bo'lgan davlatlar o'rtasidagi siyosiy tenglikning mavjudligi uning normal ishlashining asosiy sharti hisoblanadi. Tizim dinamik tenglikda bo'ladi, chunki davlatlar o'rtasidagi tenglik doimiy ravishda buziladi, keyin esa yangi asosda tiklanadi, va yana buziladi. Bu jarayon cheksiz davom etadi. Buning sababi shundaki, xalqaro munosabatlar tizimida turli qarama-qarshi kuchlar mavjud bo'lib, faqat kamdan-kam hollarda ular bir-birini muvozanatlashtiradi. Tarixda mavjud bo'lgan barcha xalqaro munosabatlar tizimlari

tabiiy tartibga solish mexanizmi bo'lgan tizimlar sinfiga kiradi. Buning sababi shundaki, hozirgacha mavjud bo'lgan hech bir xalqaro tizimda yagona tartibga soluvchi markaz bo'lmagan. G. Morgentau tomonidan keltirilgan fikrda kuchlar balansining mavjudligi va uni saqlash siyosati xalqaro tizimni barqarorlashtiruvchi kuch sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, uning beqarorligi tizimning tabiatidan, ya'ni bir markaziy tartibga soluvchi mavjud emasligidan kelib chiqadi. Bu xalqaro munosabatlar tizimining murakkab va ko'p qirrali tabiatini anglatadi (H.Morgentau, 1965).

Xalqaro munosabatlarni tartibga solish uni barqarorlashtirish bo'yicha necha asrlardan buyon siyosatshunos olimlar ko'plab o'zlarining konsepsiyalarini ishlab chiqib, ma'lum maktablarga asos solganlar. Ushbu maktablar sirasiga konservativ, realistik, liberalistik, neolibiralistik va neorealistik qarash tarafdorlari olimlarining ba'zi fikrlari qiyoslangan. Avvalo, dunyo tartibi masalasini muhokama qilishni xalqaro munosabatlar nazariyasining (XM) asosiy farazlaridan biriga murojaat qilishdan boshlash mantiqan to'g'ri bo'ladi: xalqaro munosabatlar o'z mohiyati jihatidan anarxikdir. Boshqacha aytganda, xalqaro munosabatlarning tabiyati dastlabki holatda tartibning yo'qligini nazarda tutadi. Xalqaro munosabatlardagi tartib — tabiiy bo'lmagan hodisa bo'lib, uning hozirgi konfiguratsiyada mavjudligi vaqtincha bir holatdir. Realizm tarafdorlarining mashhur vakili bo'lgan T.Gobbs, agar har bir davlat o'z ichki muammolarini hal qilishda mustaqil bo'lsa, xalqaro darajada tartib o'rnatishning qiyinlashuvi ta'kidlanadi. Global miqyosda barcha davlatlarni birlashtirib, tartibni saqlaydigan yagona hukumat yoki suverenning yo'qligi, xalqaro huquq va uning amaliyotini zaiflashtiradi. Zo'ravonlikka nisbatan monopoliya (ya'ni, yagona hukumat tomonidan kuch ishlatish huquqi) bo'lmagani uchun, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda tartib o'rnatish juda murakkab va ko'pincha muvaffaqiyatsiz bo'ladi (T.Гоббс, 1991). Liberal qarash vakillari dunyoda tartibotni o'rnatish uchun xalqaro munosabatlar ishtirokchilari, ya'ni davlatlarning huquqiy demokratik shaklda bo'lishi, ularning xalqaro tizimda faol va barqaror ishtirokchilarga aylanishini ta'minlaydi. Shuningdek, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va savdo orqali davlatlar o'rtasida tinchlikka bo'lgan iqtisodiy ehtiyoj kuchayadi, bu esa urushlarni oldini olishga yordam beradi. Tijoratning to'xtashi har ikki tomon uchun ham zararli bo'lgani uchun, shuning uchun savdo orqali kuchli iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan davlatlar urushdan ko'ra iqtisodiy farovonlikka ko'proq e'tibor qaratishadi. Nihoyat, xalqaro huquq va institutlarning joriy etilishi esa, davlatlar o'rtasidagi tartibni mustahkamlash va umumiy normativ doiradagi harakatlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

Konservatorlar siyosiy rejim va davlatning ichki tuzilishi, ayniqsa demokratik yoki avtokratik bo'lishi, tashqi siyosatga ta'sir qilmasligini ta'kidlashadi. Buning o'rniga, tashqi siyosat faqat **milliy manfaatlar** asosida shakllanadi va har bir davlat o'z manfaatlarini amalga oshirishda qat'iy va raqobatbardosh tarzda harakat qiladi. Tashqi siyosatning asosiy yo'nalishi – milliy manfaat, va bu barcha rejimlar uchun umumiydir. Yana bir muhim fikr shundaki, iqtisodiyot yoki xalqaro savdo tizimi xalqaro munosabatlardagi anarxiyani, ya'ni davlatlar o'rtasidagi doimiy raqobat va xavf-xatarni bartaraf eta olmaydi. Har bir davlat yoki davlatlar ittifoqi xalqaro savdo va resurslar taqsimotida o'z foydasini ko'zlaydi, bu esa ko'pincha **nolga teng o'yinga** (zero-sum game) olib keladi: biri yutadi, boshqasi yutqazadi. Shu bilan birga, iqtisodiyot davlatlar o'rtasidagi raqobatning bir jihati sifatida faqat bir soha hisoblanadi. Iqtisodiy salohiyat davlat kuchining muhim tarkibiy qismi bo'lsa-da, u harbiy kuch bilan birga **davlatning global iyerarxiyadagi o'rnini aniqlashda** asosiy omillardan biridir. **Anarxiya** (ya'ni, xalqaro tizimdagi tartibsizlik yoki davlatlar o'rtasidagi boshqaruvning yo'qligi) prinsipini xalqaro munosabatlardan olib tashlab bo'lmaydi. Davlatlar o'rtasidagi doimiy raqobat va xavf-xatarlardan, qaysi biri hukmronlikka intilsa, bu muammo o'zgarishsiz qoladi. Anarxiyaga barham berish va dunyo tartibini saqlashning yagona vositasi bu hukmronlik uchun potentsial da'vogarlarini kuch bilan to'xtatishdir (Г.Морге́нтау, 2002). Dunyo tartibi va uning tuzilmasi, **xalqaro huquq** yoki **boshqaruv institutlari** orqali emas, balki **kuch bilan** aniqlanadi. Bunday kuch, nafaqat harbiy salohiyatni, balki iqtisodiy, inson resurslari va g'oyaviy ta'sir kuchini ham o'z ichiga oladi (Edward, 2001).

K.Voltsning nazariyasi, **neorealizm**, dastlabki realizmning normativ tamoyillarini yangicha tizimga kiritish orqali yanada chuqurroq va tizimli tahlil qilishni ta'minladi. Uning fikricha, tashqi siyosatni tushunish uchun faqat davlatning ichki tuzilishini hisobga olish yetarli emas, balki uni **xalqaro tizim** kontekstida ko'rib chiqish zarur. O'zgarayotgan xalqaro tizim, o'z navbatida, davlatlarning tashqi siyosatini o'zgartiradi. Bu fikr, **liberalizmning tashqi siyosatni ichki siyosat bilan bog'lashga bo'lgan urinishlarini** rad etadi va ularni **konservativ tanqid qiladi. kuch va ta'sir** — bu tizimning iyerarxiyasini belgilaydigan asosiy mezonlar. Kuch aniq bir ta'rifga ega: bu davlatning o'z xavfsizligini ta'minlash va o'z manfaatlarini amalga oshirish qobiliyatidir. Lekin uning ortida iqtisodiy imkoniyatlar va boshqa resurslar ham yotadi. Harbiy kuch, albatta, davlatning xavfsizligini ta'minlashda asosiy vosita bo'lsa-da, iqtisodiy kuch ham katta rol o'ynaydi. Iqtisodiyot, siyosiy tizimning bir qismi sifatida, davlatning kuchini kuchaytiradigan muhim omil bo'lib, uning xalqaro maydondagi o'rnini belgilashda ta'sir qiladi. Demak, **dunyo tartibi nafaqat**

harbiy, balki iqtisodiy kuchga asoslanadi va ularning o‘zaro bog‘liqligi siyosiy tizimni shakllantiradi. (Waltz, 2010). K. Volts, o‘zaro bog‘liqlikning asosiy muammosi aynan notenglik ekanligini qayd etgan. Ammo bu notenglikni iqtisodiy emas, balki siyosiy kategoriyalarda, ya’ni kuch tushunchalari orqali tushunish kerak. O‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan davlatlar, bir-biriga nisbatan nisbatan teng bo‘lgan davlatlardir. Agar davlatlar bir-biriga teng bo‘lmasa, u holda o‘zaro bog‘liqlik, bir tomonning boshqasiga bog‘liqligiga aylanadi. Shuning uchun o‘zaro bog‘liqlik, tizimdagi davlatlar soni kamaygani sari kamayib boradi — ya’ni, ko‘p davlatlar kichik sonli kuch markazlariga bog‘lanib qoladi (Waltz, 2010).

Biz zamonaviy dunyo tartibini o‘rganish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ba’zi nazariy yondashuvlarni belgiladik. Shubhasiz, ushbu nazariyalar va mualliflar mavjud yondashuvlar to‘plamini to‘liq o‘z ichiga olmaydi. Biroq, tanlangan nazariyalar (a) asosiy normativ siyosiy nazariyalar bilan chuqur bog‘langan; (b) tizimli va struktural kategoriyalarni qo‘llaydi; (v) empirik ravishda tekshirilishi mumkin bo‘lgan nazariyalar bo‘ldi.

XULOSA

Zamonaviy dunyoviy tartibot tushunchasi xalqaro munosabatlardagi siyosiy vaziyat yoki sharoitning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki, har bir davrda yangi kuchlar markazi va muvozanatining yuzaga kelishi o‘z navbatida mavjud tizimni qulashi va u yaratgan tuzumning parchalanishiga olib keladi. Shu sababli, bugungi davr yangicha dunyoviy tartiboti bu – xalqaro munosabatlar ikki qutblik konfiguratsiyasining buzilishi natijasida yuzaga kelgan, o‘z asosini bir-biriga bog‘liq harbiy, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, ilmiy-texnikaviy xarakterdagi holatlar tizimi tashkil qiladigan, xalqaro aktorlarning aniq reja va manfaatlariga asoslangan, vaqtinchalik tuzilgan yangi xalqaro munosabatlar ko‘p qutbli tizimining strukturasi hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoviy tartibotning belgilari sifatidagi qutblanish konsepsiyalari e’tirof etilmoqda. Tartibotning shakllanish jarayonlari uchta qutb davriy bosqichidan iborat bo‘lgan. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Maqolani tadqiq qilish jarayonida ularning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘tildi. Bizning fikrimizcha, bugungi ko‘p qutbli dunyoviy tartibot O‘zbekistonning xalqaro munosabatlardagi pozitsiyasi va manfaatlariga to‘la mos keladi. Chunki, hozirda O‘zbekiston Respublikasi ko‘p vektorli siyosatni amalga oshirmoqda. Ko‘p vektorli siyosatni amalga oshirishning afzalligi mamlakatning xalqaro arenadagi imkoniyatlar doirasini ortishi bilan belgilanadi.

Xalqaro munosabatlar tizimida tarixiy tizimlarning mavjud bo'lishi natijasida milliy davlatchilik, suverenitet tushunchalari shakllandi va ular amalda qo'llanildi. Bunda har bir davlat o'z hududida o'z suverenitetidan foydalanish, tashqi siyosatini mustaqil olib borish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Shuningdek, xalqaro munosabatlarda kuchlar muvozanati, kuchlar markazi va dunyo ikki qutbli tizim davrida "status-kvo" qat'iy qoidalari asosida rivojlandi.

Dunyoviy tartibotning zamonaviy bosqichining o'ziga xosligini quyidagi omillar bilan tavsiflandi:

– bir va ikki qutbli dunyoviy tartibotlar yakun topdi va uning o'rniga ko'p qutbli dunyoviy tartibotga o'tish jarayonlari boshlandi. Hozir dunyoda bir qutbli dunyodan ko'p qutbli tizimga o'tish jarayoni ketmoqda. Etakchi davlatlar tomonidan bu tizimga o'tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Uning ishlashi uchun albatta muayyan davr talab qilinadi.

– ijtimoiy-madaniy xarakterdagi omillarni tartibga solishning madaniylashuvi. Ijtimoiy-madaniy xarakterdagi omillar tizimining tarkibiy elementlarini xalqaro aktorlarning hukmronlik, manfaat va kelishuv borasidagi munosabatlari tashkil qiladi. Ushbu omilni tartibga solishning madaniylashuvi atamasi orqali xalqaro maydonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda yetakchi va boshqa subyektlarni muayyan talablarga rioya qilishi nazarda tutilmoqda.

– informatsion texnologiyalar va axborotlashuv jarayonlarini jadal suratlar bilan rivojlanib ketishi. Albatta, ushbu jarayonlar xalqaro tartibotni harakatlantiruvchi mexanizmning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda, moddiy olamdan tashqari yana bir vertual olamning yaratilishi xalqaro munosabat sub'ektlarining o'z kuchini to'g'ri taqsimlashi zarurligini talab qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kundagi yangicha dunyoviy tartibot bu – xalqaro munosabatlar ikki qutblik konfiguratsiyasining buzilishi natijasida yuzaga kelgan, xalqaro aktorlarning aniq reja va manfaatlariga asoslangan, vaqtinchalik tuzilgan yangi xalqaro munosabatlar ko'p qutbli tizimining strukturasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Edward, C. (2001). The Twenty Years' Crisis. London: Palgrave.
2. H.Kissinger. (1994). Diplomacy. New York: Simon and Schuster.
3. H.Morgentau. (1965). Politics Among Nations. The Struggle for Power and Peace. New York: McGraw-Hill.

4. S.Hantington. (2023). Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va yangi dunyo tartibi. Toshkent : Yangi asr avlodi .
5. S.Hoffmann. (1978). Primacy of world order: American foreign policy since the cold war. New York: McGraw-Hill.
6. Т.Гоббс. (1991). Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского. Мысль.
7. Waltz, К. (2010). Theory of International Politics. Long Grove: Waveland Press.
8. Ачкасов В. А., Л. С. (2011). Мировая политика и международные отношения. Москва: Аспект Пресс.
9. Г.Моргентау. (2002). Политические отношения между нациями: борьба за власть и мир.
10. Лебедева, М. (2004). Мировая политика. Москва: АСПЕКТ ПРЕСС.
11. Тимофеев, И. (2014). Мировой порядок или мировая анархия? Взгляд на современную систему международных отношений. МОСКВА: НП РСМД.